Ingliz tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining muloqot qobiliyatini rivojlantirish	1242
Xalilova Muxlisa Ulug'bek qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish bosqichlari	1247
Xayitov Jonibek Xolboboyevich	
Pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonini individuallashtirishning pedagogik tizimini takomillashtirish	1250
Xudoyberdiyeva Janona Rustamovna	
Bo'lajak pedagoglarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari	1254
Axmedov Akmal Yusufovich, Muhammadjonova Zarnigor Shokirjon qizi	
Boshlang'ich sinflarda matematik mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi metod va vositalar	1258
Eshonqulova Shafoat Ergashevna, Eshonqulov Sherzod Ummatovich, Samandarova Shahnoza	
Muhandislik ta'limida smart-ta'lim texnologiyalari va adaptiv loyihalash kompetensiyasining nazariy-metodologik asoslari	1262
G. Sh. Tursunova	
Professional Needs of Deputy Directors at Secondary Schools	1266
Jambilov Nurillo Xabibilloevich	
Virtual reallik texnologiyalari yordamida ta'lim samaradorligini oshirish imkoniyatlari	1269
Mamadjonova Nozima Adhamovna	
AI or Corpus: Which is Better for Teaching English Vocabulary?	1272
Munajat Sultonova	
O'quvchilarni kasbga yo'nal tirishning pedagogik asoslari	1275
Raxmatullayeva Durdona Ravshanovna	
Ingliz tilida talabalarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi (sohaviy matnlarni o'qishni o'rgatish misolida)	1278
Shahobiddinova Dilnavoz Bahodir qizi	



Muhandislik grafikasi ta'limida raqamli transformatsiya: o'quv jarayonini takomillashtirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar (Cad, 3D modellash, VR) roli	1281
Tadjiyeva Feruza Muxtarovna	
Raqamli ta'lim ekotizimi: AKT asosida axborot-ta'lim muhiti va virtual laboratoriyalarni joriy etish tajribasi	1286
Toshkentov Akmal Mamirovich	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida chiroyli yozish texnologiyalarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....	1290
Usmonova Gulnoza Abdurashid qizi	
Теория коммуникации как методологическая основа изучения трансформации языковой нормы в эпоху цифровых медиа.....	1294
Дилшодбеков Темур Дилшодбек угли	
Значение усвоения учебных материалов в процессе формирования биологических понятий у учащихся.....	1297
У. О. Шарибаева	
Specifics of Teaching Professional Terminology to Students of Economic Specialties	1301
Хамдамов Рамзбек Мадаминжонович	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni kasbga yo'naltirish: pedagogik yondashuvlar va amaliy tajribalar.....	1306
Ahmedova Lola Abdivasi qizi	
Madaniyat tushunchasi va uni xorijiy til o'qitishda o'rganish zarurati.....	1311
Ma'murova Farangiz Ne'matovna	
Grafik organayzer tushunchasining mohiyati va uning turlari	1315
Nabijanov Yusufjon Inomiddin o'g'li	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishning ilmiy metodik asoslari.....	1319
Xidirova Gavhar Babaqul qizi	
Pedagogik nizo va stress holatlarida o'qituvchining o'zini boshqarish malakasini shakllantirish	1322
Razzakova Dilnoza Akramovna	
Kompyuter grafikasi darslarida loyihaviy yondashuvni amalga oshirishning metodik asoslari.....	1326
Nazarova Shahnoza Shokirovna	
Kichik yoshdagi o'quvchilarda universal ta'limiy faoliyatlarni shakllantirish nazariyasi.....	1330
Abdullayev A'zimjon Abduvali o'g'li	
ART pedagogikaning tarixi va kelib chiqishi	1335
M. K. Abulova	
Dasturiy-didaktik ta'minot asosida talabalarining kiberpedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	1338
Bekchonova Shoira Bazarbayevna	
Bo'lajak pedagoglarning fasilitatsion kompetentligini raqamli texnologiyalar vositasida rivojlantirish mexanizmi	1342
Eshmatova Go'zaloy Ziyoyidin qizi	
Mashqalali o'qitiladigan qaraqalpaq adabiyati sabaqida qollaniladigan abzalliklari	1346
Jaksimova Urziya Jumabaevna	
Forming Primary-School Teachers' Creative Pedagogical Culture Through Professional Reflection.....	1349
Komiljonova Dilyoraxon	
Professional ta'limda o'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy-metodik asoslari (fizika ta'limi misolida).....	1352
Kosimova Yanglish Baxtiyorovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda ertak terapiyasidan foydalanish	1355
Mamataliyeva Mahbuba Abduvoris qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan talabalarni ijtimoiy moslashtirish tizimini takomillashtirishning nazariy-pedagogik asoslari	1358
Nazarova Zarrina Allaberdiyevna	
Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari asosida pedagogik loyihalashtirish	1361
Polvonova Yulduzxon Saparboyevna	
SMART texnologiyalar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy mahoratini shakllantirish modeli	1364
Qipchaqova Yorqinoy Hamidjonovna	
Talabalarda emotsional intellektni boshqarishning ijtimoiy-psixologik usullari.....	1368
Rustamova Barno Abduxalilovna	



Nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalariga chet tili o'qitish jarayonida pragmatik kompetensiyani rivojlantirish xususiyatlari.....	1371
Sadirova Dinara Sadikovna	
The Effectiveness of Project-Based Collaborative Learning in Improving English Speaking Skills of High School Students.....	1378
Salikhova N. I., Izzetullah Zeki	
Jadidlarning pedagogik merosi va zamonaviy ta'limda akmeologik yondashuv integratsiyasi.....	1383
Shodiyeva Nasiba Rustamovna	
Serebral falajli bolalar uchun xavfsiz muhit yaratish.....	1387
Shokirova Shaxnoza Dilmurodovna	
Diplomatik hujjatlar bilan ishlashning pedagogik modeli	1391
Sobirova Shahlo Jamolovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ fikrlashga o'rgatishning zamonaviy usullari.....	1394
Suyarov Adham Begmuradovich	
Globalization and The Changing Role of English Teachers in Non-Native Contexts	1399
Toirova Shohida Kamolovna	
The Role of the Literary Heritage of the Timurid Era in Shaping National Identity and Spiritual Values	1402
Tokhliyeva Shafolat Rustam kizi	
Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning mavjud ilmiy-nazariy tavsiflari	1405
Toshboyeva Saida	
Talabalarning mustaqil ish loyihasini ishlash jarayonidagi ruhiy holatlari	1408
Uzaqbaeva Venera Abatbaevna, Kubeysinova Nilufar Maxmutovna	
O'qituvchilarda mantiqiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishning mazmuni va mexanizmlari	1412
Xursanova Zilola Mirzaxolmatovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni shakllantirish: metod va yondashuvlar	1416
Ziyayev Adxamjon	
Developing Students' Speech Skills Based on Multimodal Approach in English Teaching	1419
Bultakova Mokhinur Shuhratboy qizi	
Kreativ yondashuv asosida talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning samarali yo'llari	1422
G. M. Adizova	
A Comparative Study of Linguistic and Cultural Expression in Uzbek and English Literary Discourse.....	1426
Ismoilova Shakhnoza Ilkhomovna	
Fitrat asarlarida vatanparvarlik va milliy ong masalalarining talqini.....	1429
Isomiddinov Yo'ldosh Yusubboyevich	
Bo'lajak tarbiyachilarni pedagogik mahoratni egallash jarayonini takomillashtirish.....	1433
Jabborova Marifat Qodiraliyevna	
Umumta'lim maktablarida ijtimoiy sheriklik asosida ta'lim samaradorligini oshirish mexanizmlari	1436
Kumush Xamrakulova	
Ekologik bilimlar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatga qadriyatli munosabatlarni shakllantirishning tarixiy asoslarini o'rganishda xorijiy tajribalar.....	1440
Mirxamidova Maftunaxon Xusanboy qizi	
O'yin nomlarining lingvomadaniy ahamiyati	1444
Matmusayeva Muhayyo Azamovna	
Umumta'lim maktablarida elektroliz jarayonini o'qitish metodikasi.....	1446
O'rinova Ozodaxon O'ljayevna, Toshtemirov Asadbek	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tizimi pedagoglarining ekoestetik madaniyatini rivojlantirishda ekologik ta'lim-tarbiyaning o'rni	1450
Oygul Ashurova Anvarjonovna	
Inklyuziv ta'limda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar majburiyat yuklatilgan shaxslar emas.....	1453
Mo'minov Sulton Akbar o'g'li, Toshmurodova Muxabbat Nazaraliyevna	
Nogironligi bo'lgan o'smir bolalarni ota-onalari bilan hamkorlikda ijtimoiy hayotga moslashtirish samaradorligini oshirish.....	1460
Salixova Gulnoza Maxmudovna	
Talabalarning o'quv faoliyatini o'yinli texnologiyalar asosida tashkil etishning nazariy asoslari	1463
Umarov Nurbek Irkinovich	
Maxsus maktablarda eshitishda nuqsoni bor bolalar nutqini interfaol metodlar orqali rivojlantirish	1466
Teshaboyeva Feruza Raximovna	

Media to'garaklarini gospital ta'limda tashkil etishga oid xorijiy tajribalar tahlili.....	1469
Abduraximova Nozimaxon Baxadirovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining intellektual ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish tizimi.....	1475
Abduraxmonova Noila Nasim qizi	
Raqamli transformatsiyaning mohiyati, xususiyatlari va sotsiomadaniy jarayonlarga ta'siri.....	1479
Bakirov Otabek Bo'ranovich	
Ingliz tilini o'qitishda mediatexnologiya vositalarini tadbiq qilishning optimal shakl va usullari.....	1484
Eshboyev Shoirazamatovna	
Singapur, Angliya, Rossiya va O'zbekiston o'quv dasturlarida o'qish savodxonligi yondashuvlari	1488
Eshonkulova Hilola Rajab qizi	
O'quv mashg'ulotlarini tarbiyaviy funksiyalarini amalga oshirishda uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	1492
Fayziyeva Maftuna Ilxomovna	
Badiiy asarlarni o'rganish jarayonida bolalarni bilish ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	1496
Jaloldinova Madinaxon Xojakanovna	
Oliy harbiy ta'lim tizimida kursantlarning psixologik moslashuvi va shaxsiy shakllanishining psixologik omillari.....	1499
Kushbayev Sardor Kenjabayevich	
Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning so'zlashuv nutqini rivojlantirishning samarali usullari	1502
Lola Ibragimova	
Bo'lajak iqtisodchi mutaxassislar uchun mustaqil ta'limni tashkil etish modeli	1506
Muqimova Zulxumor Ziyatoliyevna	
4K modeli asosida darslarni tashkil etish.....	1511
Nazarova Mavluda Uktamovna	
Ota-onalarning bolalar tarbiyasidagi mas'uliyatini oshirishda pedagogik targ'ibotning o'рни.....	1514
Ochilova Dilrabo Ibragimovna	
Tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning kombinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish ..	1517
Raxmatova Gulobod Tuyboy qizi	
Muhandislik ta'limida texnologik tafakkurni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari	1520
Turayeva Nargiza Nasrullayevna	
Logistik tizimlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalari fanini o'qitishda zamonaviy metodlarning o'рни va ahamiyati.....	1524
Ulug'murodova Nargiza Norovna	
Experimental Justification and Evaluation of the Effectiveness of a Gymnastics Exercise Complex Based on a Differential Approach In The Prevention of Metabolic Syndrome and Overweight In Women of Reproductive Age.....	1528
Urazova Muborak Yuldosheva	
PIRLS xalqaro tadqiqotida o'qituvchi omilining o'quvchilar natijasiga ta'siri.....	1532
Usmonova Yulduz Abdusaid qizi	
Когнитивные стили обучающихся как ключевой нейропсихологический компонент	1537
Эгамбердиева Фарида Октамовна	
Markaziy Osiyoda dizaynning rivojlanish istiqbollari.....	1540
Abdijalilov Abdivohid Abdihalimovich	
Bo'lajak oilaviy shifokorlarning boshqaruvchanlik kompetensiyalarini shakllantirishda didaktik imkoniyatlar	1544
Yusupova Shaxnoza Qodirjonovna, Abduvahobova Nozima Rahmanovna	
Oliy ta'lim sifatining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta'siri	1549
Alimova Mavluda Shuxratbekovna	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy malakalarini takomillashtirish metodikasi (filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili yo'nalishi misolida)	1553
Axadova Shaxnoza Odiljonovna	
Algorithmic Filtering and Social Polarization	1556
Azizova Shodiya Utkur kizi	
Malaka oshirish jarayonida pedagoglarning huquqiy madaniyatni rivojlantirish metodlari	1560
Boymirzayeva Raximaxon Xoshimjonovna	



Globalashuv sharoitida oilaning an'anaviy qadriyatlari va zamonaviy tendensiyalari nisbati	1565
<i>Ergashova Guljahon Akmal qizi</i>	
Turli yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarda (5–6 va 6–7 yosh) kognitiv rivojlanishni tashkil etishda o'yin turlarini tanlashning pedagogik asoslari	1569
<i>Fozilova Odina Nabiyeвна</i>	
Tibbiy ta'lim talabalarining amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv simulyatorlardan foydalanishning nazariy asoslari.....	1572
<i>Abdullajanov Baxrom Rustamjanovich, Yakubbekova Mavluda Kozimjonovna, Isakov Qobiljon Komiljon o'g'li</i>	
Fitrat asarlarida vatanparvarlik va milliy ong masalalarining talqini.....	1576
<i>Isomiddinov Yo'ldosh Yusubboyevich</i>	
“Temurbeklar maktabi” o'quvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyalarini elektron ta'lim resurslari vositasida rivojlantirishning samaradorlik darajasi.....	1580
<i>Jumayev Javlonbek Abduqahhor o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini qo'shiqlar orqali shakllantirishning psixolingvistik masalalari.....	1585
<i>Karimova Dilyora Raximjon qizi</i>	
Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni pedagogik loyihalashtirishda reflektiv yondashuvi turlari	1589
<i>Nurmanov Alisher Shaymardonovich</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qtuvchilarni raqamli texnologiyalar vositasida kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlarini takomillastirish.....	1591
<i>Sh. A. Abdullayev</i>	
Tibbiy ta'limda talabalar kognitiv tafakkurini rivojlantirish texnologiyalarining nazariy-metodik asoslari.....	1594
<i>Abdullajanov Baxrom Rustamjanovich, Supichakov Xondamir Xamidovich, Yusupova Shaxnoza Kadirjanovna, Isakov Qobiljon Komiljon o'g'li</i>	
O'quvchilarda ingliz tilidagi lingvistik kompetensiyani shakllantirishda tizimli yondashuvning roli.....	1598
<i>Tojiyeva Anora Baxtiyorovna</i>	
Inklyuziv ta'lim tushunchasi va rivojlanish bosqichlari	1602
<i>Toshboltayeva Malohatoy Valijon qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish	1605
<i>Turobova Nilufar Umedullayevna</i>	
Bo'lajak pedagoglarda fasilitatorlik sifatlarini rivojlantirishning samaradorligi.....	1610
<i>Xamidova Sabrina Abduvahob qizi</i>	
Tibbiy ta'limda interaktiv simulyatorlardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari.....	1615
<i>Abdullajanov Baxrom Rustamjanovich, Yakubbekova Mavluda Kozimjonovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqini o'stirishda kompyuter o'yinlarining o'rni	1620
<i>Yalgasheva Zilola Haziratkul qizi</i>	
O'quvchilarda kreativlik ko'nikmalarini shakllantirish	1624
<i>Yuvashov Sherzod Ulmasovich</i>	
Формирование лингвокультурной компетенции студентов-филологов в процессе изучения русского языка как неродного	1628
<i>Имомалиев Шукурулло Шухратович</i>	
“Time Management” tushunchasi va oliy ta'lim muassasalari talabalarining o'quv yutuqlari o'rtasidagi bog'liqlik	1631
<i>Sirojova Nafisa Isomiddin qizi</i>	
Oilaviy shifokorlarni tayyorlashda boshqaruvchanlik kompetensiyalarini rivojlantirish: mazmuni va turlari ..	1635
<i>Yusupova Shahnosa Qodirjanovna, Abduvahobova Nozima Rahmonovna</i>	
Birlamchi sogliqni saqlash tizimida oilaviy shifokorni tayyorlashda an'anaviy institutsional yondashuv (adabiyotlar sharhi).....	1639
<i>Abduvaxobova Nozima Raxmanovna, Yusupova Shaxnoza Qodirjanovna</i>	
Oila shifokorining tibbiy faoliyatining kommunikativ asoslarini rivojlantirish	1643
<i>Yusupova Shaxnoza Kadirjanovna, Abduvahobova Nozima Rahmanovna</i>	
Oilaviy shifokorlarni tayyorlashda boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirish (adabiyotlar sharhi).....	1652
<i>Yusupova Shaxnoza Qodirjanovna, Abduvaxobova Nozima Rahmonovna</i>	
Dyuzdo sportining xalqaro maydondagi rivojlanish istiqbollari va o'zbekiston tajribasi	1657
<i>Tangriyev Abdullo Tovashovich</i>	
Challenges in Organizing Scientific Research Activities of Future Educators	1666
<i>Abdullaeva Ozoda Odiljon kizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda ijtimoiy xulq-atvor va ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi	1670
<i>Abduvaxobova Nodira Abdusalam qizi</i>	

O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy-pedagogik hamkorlikda tarbiyalash ustuvor masala sifatida	1674
<i>Abirova Umida Nazarovna</i>	
Reflektiv yondashuv asosida xorijiy til ta'limida metakognitiv kompetensiyani shakllantirishning pedagogik mexanizmlari	1678
<i>Alimov Jamshid Ravshanovich</i>	
O'zbek folklor raqs san'ati motivlari asosida talabalarning madaniy kompetentligini rivojlantirish metodikasi	1683
<i>Asror Allayarov</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar nutq madaniyatiga ta'siri (global tajribalar va O'zbekiston misolida tahlil) ...	1687
<i>Azimjonova Shahnoza Dilshodbek qizi, Xoldarov Bexruzbek Mansurbek o'g'li</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda dizartriyaning namoyon bo'lish darajalari	1691
<i>Berdibekova Zilola Sherzod qizi</i>	
Sotsial-pedagogik tamoyillar asosida talabalarni axborot addiksiyasidan himoyalash nazariyasi	1696
<i>Djumayeva Xulkarxon Muhammadjonovna</i>	
O'quvchilarning STEM fanlariga qiziqishini oshirish uchun samarali o'qitish metodlari.....	1700
<i>Eranova Aziza Axmamat qizi, Djumayev Axmamat Shermamatovich, Shodiyeva Nazira Qudratovna</i>	
Dizartriya bolalarda nutq va harakat jarayonlarini o'rganish va neyropsixologik yondashuv asosida korreksiyalash	1705
<i>Gapurova Dilnoza Tajibayevna, Odilova Sevara Bahriddin qizi</i>	
Duduqlanuvchi bolalarda nafas funksiyasi va nutqiy nafasni rivojlantirish	1708
<i>Isamova Gulchexrabonu Marvar qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarda informatsion dunyoqarashni takomillashtirish metodikasi	1713
<i>Jumayev Umidjon G'ofir o'g'li</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda san'at asarlarini idrok etish kompetensiyalarini rivojlantirish.....	1718
<i>Kadirova Zarina</i>	
Abdulla Avloniy asarlarini o'qitishda interfaol ta'lim texnologiyalari va lingvokulturologik kompetensiyani rivojlantirish imkoniyatlari	1721
<i>Karaxodjayeva Maxfuza Xamidullaevna</i>	
O'smirlarda agressiv xulq-atvorni psixokorreksiyalash dasturining samaradorligi tahlili	1726
<i>M. I. Kushanova</i>	
Maktabgacha yoshdagi yengil dizartriya bolalar lug'at boyligini innovatseon texnologiyalar vositasida rivojlantirish	1731
<i>Mamatova Aziza Bo'riboyevna, Xayrulloeva Marjona Tuychi qizi</i>	
Pedagogik ta'lim sohasida ta'lim sifatini takomillashtirish masalalari	1734
<i>Mirzayeva Faroxat Odiljonovna, Komilova Ziroat Murodjon qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'limda fanlararo integratsiyaning nazariy-konseptual asoslari	1737
<i>Mustafokulova Durdona</i>	
Baqtriya va Marg'iyona muhr va tumorlarida ifodalangan tasvirlarning tasniflanishi	1740
<i>Norxamidova Muattar Zavqiddin qizi</i>	
15-16 yoshli kurashchilarni mashg'ulot yuklamalarini samarali rejalashtirish.....	1745
<i>O. E. Toshmurodov, S. E. Shomurodov</i>	
Pedagogika sohasiga oid maktablarda ingliz tili fanini o'qitish usullari.....	1753
<i>Ochilova Laylo Rajabovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning emotsional-ir0daviy sifatlarini tarkib toptirishda xorij tajribasi	1757
<i>Quldosheva Shahlo Ibragim qizi</i>	
Shaxsda emotsional zo'riqishni bartaraf etishning psixologik mexanizmlari	1763
<i>Quyliyeva Orzigul Rajabboyevna</i>	
O'smir qizlarda ma'naviy dunyoqarashining shakllanganligini belgilaydigan mezonlar.....	1766
<i>Rajapov Vahobjon To'rajanovich</i>	
Frazeologizmlarning uslubiy tasnifini belgilash masalasi	1770
<i>Rashidova Umida Mansurovna</i>	
Yosh kurashchilarning chidamkorligini rivojlantirish muammolari.....	1774
<i>S. E. Shomurodov</i>	
Boshlang'ich ta'limda millatlararo muloqot ko'nikmalarini axloqiy kontentlar asosida shakllantirishda pedagogik texnologiyalar.....	1779
<i>Sanakulova Sarviniso Xamrakulovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida refleksiv ta'lim muhitini yaratish uchun pedagogik sharoitlar va vositalar	1783
<i>Shukirullayeva Sarbinaz Alliyar qizi</i>	



Gender farqlarni hisobga olgan holda o'quv-tarbiyaviy jarayonida maktab o'quvchilarining shaxsida axloqiy qarashlarini shakllantirish.....	1787
Umirova Gulnoza Zakirbayevna	
Xorijiy til o'qitish metodikasining tarixiy genezisi va rivojlanish bosqichlari	1790
Usmonxodjayeva Moxiraxon Abdumalikxodjayevna	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida badiiy va estetik tafakkur orqali ta'lim berish ko'nikmasini rivojlantirish.....	1797
Vaxabova Gulshan Vafoqul qizi	
Yoshlar estetik madaniyatiga ma'naviy-mafkuraviy yondashuv.....	1801
Xalilova Charosxon Omonboy qizi	
Духовные основы педагогического мастерства в трудах русских и узбекских педагогов-гуманистов	1805
Костишина К., Рустам-Валиева Г., Рахимова М., Утегенова Г.	
maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarini inklyuziv faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik zarurati.....	1811
Umarova Zuxra Madyrbekovna	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish usullari	1814
Sheraliyeva Guzal Elibayevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tanqidiy va kreativ fikrlashni shakllantirishning samarali pedagogik usullari	1818
Mamasoliyeva Shirinoy Sirojiddin qizi	
Ona tili va adabiyot fanini o'qitishda "Debat" va "Aqliy hujum" texnologiyalarining lingvopedagogik samaradorligi.....	1822
Nafasova Yulduz Shuxratovna	
Fizika darslarida muammoli o'qitish texnologiyasi orqali o'quvchilarda ichki motivatsiyani shakllantirish ...	1825
A. B. Kamalov, I. Jumaniyazova	
Zamonaviy multimedia texnologiyalari va uning ta'lim jarayonidagi o'rni	1829
Shirinov Feruzjon Shuxratovich, Qosimova Mohira Botirali qizi	
Цели и задачи когнитивной педагогики.....	1832
Инагамова Нодира Абдусаматовна	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	1835
Tengelova Dilfuza Urazali qizi	
Oilaviy shifokorlarni tayyorlashda boshqaruvchanlik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi bo'yicha tajriba-sinov ishlari natijalarining samaradorligi.....	1839
Abduvaxobova Nozima Raxmonovna, Yusupova Shaxnoza Kadirjanovna	
Learning English With Sign Language in Secondary School (Improving Communication Skills).....	1849
Nabiyeva Nodira Rustamjon qizi	
Tarixiy romanlarda milliy ruh ifodasi: Shahodat Isaxonova ijodida folklor elementlari	1854
Matmusayeva Nadira Mamirovna	
Boshlang'ich sinf darslarida kompetensiyaning ahamiyati	1858
Saidnazarova Tulganoy Maxmudovna	
Tarbiyaviy texnologiyalar yordamida o'quvchilarning ma'naviy tafakkurini rivojlantirish usullari	1861
Quvondiqova Dildora Komiljonovna	
Sog'lom turmush tarzini yaratishda jismoniy tarbiya va ommaviy sportning o'rni.....	1866
Xudoyberdiyeva Elmira Botir qizi	
Bolalikdagi muomala – kelajakdagi insoniyat.....	1869
Nasirova Z. M., Inogamova Sakina	
Sahnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlantirishning o'ziga xosligi	1872
Boyitova Anorxol Gulmurodovna	
Kreativ yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tizimli fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirish mexanizmi	1877
Ilovatdinova Dilbar Azat qizi	
Talabalarning abstrakt fikrlashini rivojlantirishning germeneytik asoslari.....	1882
Abdullayeva Nafisa Anvarovna, Azizova Rayyona Rustambek qizi	
Innovatsion faoliyatga nisbatan riskologik kompetentlikni rivojlantirish modeli va amaliyoti	1885
Kandaxarov Mirjalol Abdumurot o'g'li	



PEDAGOGIKA SOHASIGA OID MAKTABLARDA INGLIZ TILI FANINI O'QITISH USULLARI

Ochilova Laylo Rajabovna

O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligining ixtisoslashtirilgan
maktab-internatida ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogika yo'nalishidagi maktablarda ingliz tili fanini samarali o'qitish usullari yoritilgan. Unda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kommunikativ yondashuv va interaktiv o'qitish usullaridan foydalanish orqali o'quvchilarning til kompetensiyasini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda loyiha asosida o'qitish, topshiriqqa asoslangan yondashuv hamda raqamli vositalardan foydalanishning ahamiyati ta'kidlangan. Shuningdek, pedagogik tamoyillarni ingliz tili o'qitish strategiyalari bilan integratsiyalash orqali bo'lajak o'qituvchilarning lingvistik va metodik kompetensiyasini rivojlantirish zarurligi qayd etilgan.

Kalit so'zlar: ingliz tili, pedagogika, o'qitish usullari, kommunikativ yondashuv, innovatsion texnologiyalar, til kompetensiyasi.

Abstract: This article examines effective methods of teaching English in pedagogical schools. It highlights the application of modern pedagogical technologies, communicative approaches, and interactive teaching techniques that enhance students' language competence. The research emphasizes the importance of project-based learning, task-based activities, and the use of digital tools in developing learners' speaking, listening, reading, and writing skills. Furthermore, the integration of pedagogical principles with English teaching strategies is underlined as a key factor in strengthening future teachers' linguistic and methodological competence.

Key words: English language, pedagogy, teaching methods, communicative approach, innovative technologies, language competence.

Аннотация: В статье рассматриваются эффективные методы преподавания английского языка в педагогических школах. Особое внимание уделяется применению современных педагогических технологий, коммуникативного подхода и интерактивных методов обучения, способствующих развитию языковой компетенции учащихся. Подчеркивается значимость проектного обучения, заданий на основе деятельности и использования цифровых инструментов. Также акцентируется внимание на интеграции педагогических принципов с методами преподавания английского языка для формирования у будущих учителей лингвистической и методической компетенции.

Ключевые слова: английский язык, педагогика, методы преподавания, коммуникативный подход, инновационные технологии, языковая компетенция.

KIRISH

Hozirgi globallashuv jarayonida ingliz tili dunyo miqyosida eng keng tarqalgan xalqaro muloqot vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda ingliz tili nafaqat kommunikativ aloqa, balki ilm-fan, texnologiya, diplomatiya, biznes va madaniyatlararo hamkorlikning muhim kalitiga aylangan. Shu sababli, O'zbekiston ta'lim tizimida ham ingliz tilini o'qitish sifatini oshirish, uni xalqaro standartlar asosida tashkil etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib bormoqda.

Pedagogika yo'nalishidagi maktablarda ingliz tili fanini o'qitishning o'ziga xos jihati shundan iboratki, bu ta'lim muassasalarida o'quvchilar nafaqat xorijiy tilni o'zlashtiradilar, balki uni kelajakda o'z o'quvchilariga o'rgatish uchun zarur bo'lgan metodik tayyorgarlikni ham egallaydilar. Shu bois, pedagogika sohasida ingliz tili o'qitish jarayoni ikki yo'nalishni qamrab oladi:

- *birinchidan*, o'quvchilarning lingvistik kompetensiyasini shakllantirish;
- *ikkinchidan*, ularning pedagogik va metodik bilimlarini rivojlantirish.



Zamonaviy ta'lim jarayonida ingliz tili darslarini o'qitishda an'anaviy yondashuvlardan voz kechib, o'quvchi markazli (learner-centered) ta'lim modeli tobora keng qo'llanilmoqda. Bu modelda o'qituvchi bilim manbai emas, balki yo'naltiruvchi, motivator va fasilitator sifatida faoliyat yuritadi. Shu sababli, ingliz tili o'qituvchilari darslarda kommunikativ yondashuv, interaktiv mashg'ulotlar, muammoli vaziyatlar asosida o'qitish, "project-based learning", "task-based learning", CLIL (Content and Language Integrated Learning) kabi ilg'or metodlardan keng foydalanishlari zarur.

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar, internet resurslari va multimediya vositalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishi ingliz tili o'qitish sifatini yanada oshirmoqda. Audio va video materiallardan, onlayn platformalar (Kahoot, Quizlet, Duolingo, Padlet va boshqalar) hamda interaktiv o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi, ularni faol o'quv jarayonining ishtirokchisiga aylantiradi.

Pedagogika yo'nalishidagi maktablarda ingliz tili fanini o'qitishda, shuningdek, madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish ham muhim o'rin tutadi. Chunki tilni o'rganish faqat grammatik qoidalarni yodlash emas, balki o'sha tilni so'zlashuvchi xalqlarning madaniyati, qadriyatlari va dunyoqarashini anglashni ham nazarda tutadi. Bu esa o'quvchilarni global fuqarolik, tolerantlik, millatlararo muloqotga tayyorlaydi.

O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'qitish sifatini oshirish bo'yicha davlat miqyosida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezidentning "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror va farmonlari ta'lim jarayonini modernizatsiya qilishda muhim dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda. Bu hujjatlar asosida ingliz tili o'qituvchilarining malakasini oshirish, darsliklarni xalqaro talablarga moslashtirish, shuningdek, innovatsion metodlarni o'quv jarayoniga tatbiq etish yo'lga qo'yilgan.

Shunday qilib, pedagogika sohasiga oid maktablarda ingliz tilini o'qitish jarayonida o'qituvchi zamonaviy metodlardan foydalangan holda o'quvchilarda mustahkam lingvistik, kommunikativ, metodik va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishi kerak. Mazkur tadqiqotda ingliz tilini o'qitishda samarali bo'lgan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quvchilarning ijodiy fikrlash va muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish usullari, shuningdek, ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarning o'rni atroflicha tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ingliz tilini o'qitish metodikasi masalalari butun dunyo ta'lim tizimida muhim ilmiy-tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini o'rgatishning samarali usullari, kommunikativ yondashuvlar va raqamli texnologiyalar asosidagi ta'lim modellari keng o'rganilmoqda. Mazkur sohada xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlari ingliz tili ta'limining nazariy hamda amaliy asoslarini yanada boyitmoqda.

Til o'qitish metodikasining shakllanishida J. Bruner, D. Xyume, L.S. Vygotskiy, J. Piaget, D. Ausubel, B. Blum kabi olimlarning konstruktivistik, kognitiv va ijtimoiy o'rganish nazariyalari muhim o'rin tutadi. Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikni ta'lim jarayonining markaziga qo'yadi. Bu yondashuvga ko'ra, tilni o'rganish jarayonida o'qituvchi o'quvchining mustaqil bilim olish jarayonini yo'naltiruvchi, rag'batlantiruvchi va yordamchi sifatida ishtirok etadi.

Ingliz tili ta'limida kommunikativ yondashuv (Communicative Approach) bugungi kunda eng samarali metodlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Bu yondashuvning asosiy maqsadi – o'quvchilarda haqiqiy muloqotga kirishish, o'z fikrini erkin ifoda etish, turli ijtimoiy vaziyatlarda tildan amaliy foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishdir. Hymes 1972-yilda ilgari surgan "kommunikativ kompetensiya" tushunchasi bugungi ingliz tili ta'limining asosiy tayanchlaridan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda ingliz tilini o'qitishda CLIL (Content and Language Integrated Learning), ya'ni "mazmun va til integratsiyasi asosida o'qitish" yondashuvi ham keng ommalashmoqda. Ushbu modelda o'quvchilar ingliz tilini o'rganish jarayonida boshqa fanlar – tarix, biologiya, madaniyatshunoslik kabi yo'nalishlarga oid bilimlarni ham egallaydilar. Bu esa ularning so'z boyligini kengaytirish, mavzuga chuqur kirish va tildan real kontekstda foydalanish imkonini beradi.

Project-based learning (loyiha asosida o'qitish) va task-based learning (topshiriq asosida o'qitish) yondashuvlari ham o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, ijodiy yondashuvini va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Tadqiqotchilar D. Nunan, J. Willis, R. Ellis kabi olimlar ushbu metodlarning o'quvchilarda ijtimoiy, lingvistik va pragmatik kompetensiyalarni shakllantirishdagi ijobiy ta'sirini ta'kidlaydilar.

O'zbekistonlik olimlar orasida A.A. Abduqodirov, M. Rahimova, N. Norqulova, D. Jalolova va boshqalar xorijiy tillarni o'qitishning milliy tizimga mos shakllarini ishlab chiqish, kommunikativ metodikani o'zbek ta'lim amaliyotiga tatbiq etish bo'yicha qimmatli tadqiqotlar olib borganlar. Ularning ishlanmalarida ingliz tili darslarida integrativ yondashuv, interaktiv mashg'ulotlar, o'yin texnologiyalari, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanishning samaradorligi asoslab berilgan.



TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagogika yo'nalishidagi maktablarda ingliz tili fanini o'qitish bo'yicha olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'quv jarayonida qo'llanilayotgan metodlar o'quvchilarning lingvistik, kommunikativ hamda ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Biroq, an'anaviy yondashuvlar asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilarning tilni faol qo'llash ko'nikmalari yetarlicha rivojlanmasligi, asosan grammatik qoidalarga tayanib qolish holatlari ham uchramoqda. Shu bois, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish zaruriyati kundan-kunga ortib bormoqda.

O'tkazilgan kuzatuvlar va tahlillar shuni ko'rsatadiki, interaktiv metodlar (juftlikda ishlash, guruhli topshiriqlar, o'yin asosidagi mashg'ulotlar, rolli o'yinlar, debatlar) o'quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi, ularni muloqotga kirishishga va erkin fikr bildirishga undaydi. Ayniqsa, "role play" va "think-pair-share" kabi mashg'ulotlar o'quvchilarning so'zlashuv ko'nikmalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikni ko'rsatdi.

Shuningdek, task-based learning (topshiriq asosidagi ta'lim) metodidan foydalanilgan darslarda o'quvchilar tildan amaliy foydalanish, muammolarni hal etish va jamoaviy ishlashni o'rganadilar. Bu metod o'quvchilarning mustaqil fikrlash, mas'uliyat bilan yondashish va ijodiy faoliyatini rag'batlantiradi. Project-based learning (loyiha asosida o'qitish) texnologiyasi esa o'quvchilarni uzoq muddatli topshiriqlarni bajarishga, ma'lumot izlash, tahlil qilish, taqdimot qilish kabi ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

Tajriba asosida o'tkazilgan darslarda CLIL (Content and Language Integrated Learning) yondashuvi ham yuqori natijalarni berdi. Ushbu metod orqali o'quvchilar ingliz tilida fanlararo bilimlarni (masalan, geografiya, madaniyat, tarix) o'zlashtirgan holda tilni real kontekstda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Natijada o'quvchilarning so'z boyligi kengaydi, nutq madaniyati yaxshilandi va tilga bo'lgan qiziqishlari ortdi.

Raqamli texnologiyalar asosida o'qitilgan guruhda ham ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Quizlet, Kahoot, Duolingo, Padlet kabi onlayn platformalar yordamida o'tkazilgan mashg'ulotlar o'quvchilarda raqobat, mustaqillik va motivatsiyani kuchaytirdi. Ayniqsa, interaktiv testlar, viktorinalar va virtual o'yinlar o'quvchilarning darsga bo'lgan ishtiyoqini oshirdi hamda o'rganilgan bilimlarni mustahkamlashga xizmat qildi.

Tahlil natijalariga ko'ra, zamonaviy metodlar asosida o'qitilgan o'quvchilar grammatik bilimlardan tashqari, og'zaki va yozma nutqda o'z fikrini aniq va lo'nda ifoda eta olish, suhbatda faol ishtirok etish, yangi so'zlarni tez o'zlashtirish, hamkorlikda ishlash va ijodkorlikni namoyon etish kabi kompetensiyalarni shakllantirganlar. An'anaviy metodlar bilan taqqoslaganda, bu yondashuv o'quvchilarning motivatsiyasi, o'zlashtirish darajasi va ishtirok faolligini 25–30% ga oshirganligi qayd etildi.

Bundan tashqari, o'quvchilarning fikr-mulohazalari ham o'rganildi. Ulardan aksariyati ingliz tili darslarining interaktiv shaklda o'tilishi, multimedia vositalaridan foydalanish, guruhli ishlash imkoniyati mavjud bo'lgan darslarda o'zlarini erkin va qiziqarli his etishlarini ta'kidladilar. Shu bilan birga, ayrim o'qituvchilar uchun yangi metodlarni to'liq o'zlashtirish, texnik vositalardan samarali foydalanish bo'yicha malaka oshirish ehtiyoji mavjudligi aniqlandi.

O'tkazilgan tahlillar natijasini tahlil etish shuni ko'rsatadiki, ingliz tilini pedagogika yo'nalishidagi maktablarda o'qitish jarayonida qo'llanilayotgan zamonaviy metod va texnologiyalar ta'lim sifatini tubdan yaxshilash imkonini bermoqda. Avvalo, o'qituvchi dars jarayonini tashkil etishda an'anaviy yondashuvdan voz kechib, o'quvchini o'quv jarayonining faol sub'ekti sifatida ko'rishi muhim. Bu yondashuv o'quvchilarning o'z fikrini erkin ifoda etishi, mustaqil qaror qabul qilishi va ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun qulay muhit yaratadi.

Ingliz tili darslarida kommunikativ yondashuv (Communicative Approach) va interaktiv metodlardan foydalanish o'quvchilarning muloqot kompetensiyasini shakllantirishda asosiy o'rin tutadi. Chunki tilni o'rganishning asosiy maqsadi – o'quvchini real hayotiy vaziyatlarda samarali muloqot qila olishga tayyorlashdir. Bu jihatdan, "dialog", "debate", "role play" kabi metodlar nafaqat tilni o'rgatadi, balki o'quvchilarni tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish, jamoa bilan ishlash kabi ijtimoiy kompetensiyalarni ham rivojlantiradi.

Tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi darsda interaktiv vositalar va raqamli texnologiyalarni (multimedia taqdimotlar, video materiallar, onlayn platformalar, o'yinli dasturlar) qo'llagan hollarda o'quvchilarning o'quv motivatsiyasi sezilarli darajada ortadi. Bu jarayon o'quvchini faqat passiv tinglovchiga emas, balki faol ishtirokchiga aylantiradi. Masalan, "Kahoot" yoki "Quizizz" kabi o'yinli platformalarda o'tkazilgan testlar o'quvchilarning raqobat ruhini kuchaytirgan, shu bilan birga, o'z bilimini mustahkamlashga bo'lgan qiziqishini orttirgan.

Pedagogik yondashuv nuqtayi nazaridan qaraganda, o'qitish metodlari o'quvchilarning yosh, psixologik va individual xususiyatlariga mos tanlanishi zarur. Chunki har bir o'quvchining o'ziga xos o'rganish uslubi mavjud: ba'zilar vizual, ba'zilar eshitish orqali, boshqalar esa amaliy faoliyat orqali yaxshiroq o'zlashtiradilar. Shu bois, ingliz tili darslarida multimodal (ko'pkanalli) o'qitish metodlarini joriy etish, ya'ni audio, video, matn, harakat va suhbatlarni uyg'unlashtirish, eng samarali natijani beradi.

Muhokamalar shuni ham ko'rsatadiki, o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi ham ta'lim samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. Zamonaviy o'qituvchi ingliz tilini mukammal bilish bilan birga, raqamli savodxonlik, innovatsion pedagogika va psixologik yondashuvlar bo'yicha ham yetarli malakaga ega bo'lishi lozim. Shu

bois, pedagogik oliygohlarda bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida metodik treninglar, amaliy mashg'ulotlar, mikrodarslar o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Pedagogika sohasiga oid maktablarda ingliz tili fanini o'qitish zamonaviy ta'lim jarayonining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, ingliz tilini o'qitishda an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda innovatsion va kommunikativ metodlarni qo'llash o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini kuchaytiradi, ularning mustaqil fikrlash, muloqot qilish va ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Zamonaviy o'qitish metodlari – CLIL, kommunikativ yondashuv, loyiha asosidagi ta'lim, interfaol mashg'ulotlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'z ichiga oladi. Ushbu metodlar o'quvchilarning ingliz tilini faqat grammatik jihatdan emas, balki amaliy nutq faoliyatida qo'llay olish ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, raqamli platformalar (Kahoot, Quizizz, Wordwall, LearningApps va boshqalar) orqali tashkil etilgan darslar o'quvchilarda raqobat, qiziqish va faol ishtirokni oshiradi.

Pedagogika yo'nalishidagi ta'lim muassasalarida ingliz tili fanini o'qitish jarayonida o'qituvchining metodik tayyorgarligi, psixologik yondashuvi va ijodkorligi muhim omil sanaladi. Chunki zamonaviy o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchini mustaqil fikrlashga, tahlil qilishga, o'z nuqtai nazarini himoya qilishga o'rgatuvchi shaxsdir. Shu bois, o'qituvchilar malakasini oshirish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish, o'z ustida muntazam ishlash bugungi kun talabi hisoblanadi.

O'tkazilgan tahlillar asosida quyidagi ilmiy-amaliy xulosalarga kelindi:

1. Ingliz tilini pedagogika yo'nalishidagi maktablarda o'qitishda interfaol metodlarni joriy etish o'quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantiradi.
2. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish ta'lim sifatini oshirib, o'quv jarayonini yanada qiziqarli va mazmunli qiladi.
3. CLIL yondashuvi orqali ingliz tili boshqa fanlar bilan integratsiyada o'qitilganda, o'quvchilar tilni tabiiy kontekstda o'zlashtiradilar.
4. O'qituvchilarning metodik va pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish o'qitish jarayonining sifat ko'rsatkichlarini oshiradi.
5. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuvlar ingliz tili o'rganish samaradorligini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi.

Umuman olganda, ingliz tili fanini o'qitish metodikasini yangicha pedagogik qarashlar, innovatsion texnologiyalar va interfaol yondashuvlar asosida tashkil etish o'quvchilarning lingvistik salohiyatini oshiradi, ularni mustaqil fikrlaydigan, zamon talablariga javob bera oladigan raqobatbardosh shaxslar sifatida shakllantiradi. Bu esa mamlakatimizda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va xalqaro miqyosda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash yo'lidagi muhim bosqichdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chet tillarini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–5117-son qarori. – Toshkent, 2021-yil 19-may.
2. Mirziyoyev Sh. M. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" asari. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
3. Jalolov J. J. Chet tillarni o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.
4. G'ulomova X. R. Ingliz tili o'qitishning zamonaviy texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
5. Abduqodirova G. Pedagogik innovatsiyalar va ta'limda interfaol metodlar. – Toshkent: Ilm ziyo, 2020.
6. Richards J. C., Rodgers T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014.
7. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – London: Longman, 2015.
8. Brown H. Douglas. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. – New York: Pearson Education, 2014.
9. Nunan D. Task-Based Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2004.
10. Krashen S. Principles and Practice in Second Language Acquisition. – Oxford: Pergamon Press, 1982.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.